



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### TASVIRIY SAN'AT TA'LIMINING MAZMUNI VA SHAXS KAMOLOTIDAGI O'RNI

**Abduqaxorova Muslima Mirzabahrom qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi Tasviriy  
san'at yo'nalishi 1–bosqich magistranti*  
[abduqahhorovamuslima11@gmail.com](mailto:abduqahhorovamuslima11@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda tasviriy san'at ta'limining mazmuni, uning o'quvchilarda estetik idrok, ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash va did tarbiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etiladi. San'at mashg'ulotlarining shaxs kamolotiga ko'rsatadigan pedagogik va psixologik ta'siri hamda badiiy qadriyatlarni anglash jarayonidagi o'rni yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *tasviriy san'at, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, shaxs kamoloti, obrazli fikrlash, badiiy idrok, did tarbiyasi.*

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — estetik ongni rivojlantirgan, badiiy qadriyatlarni anglay oladigan, ijodiy fikrlovchi barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan tasviriy san'at ta'limi na faqat badiiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi fan, balki o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy dunyosini boyitadigan, uning idrok, tafakkur va emosional sezgirligini rivojlantiradigan kuchli pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarda borliqni estetik anglash, voqealarga obrazli yondashish, kreativ fikr yuritish, mehnatga va go'zallikka munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois san'at ta'limining mazmunini takomillashtirish, uning metodik asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish o'quvchi shaxsining har tomonlama kamolotini ta'minlashda muhim omillardan biridir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir, chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u go'zallikdan bahramand bo'lishi, undan zavqlanib dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanat asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm izlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, o'qituvchilar, injenerlar, tibbiyot xodimlari, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu tasviriy, amaliy va me'morchilik





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



san’atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma’noni anglatmaydi.

Ijodiy fikrlash – bu yangi g‘oyalarni ilgari surish, mavjud bo‘lgan bilimlarni yangicha tarzda qo‘llay olish, noan’anaviy yondashuvni qo‘llab-quvvatlash qobiliyatidir. Bu jarayon inson tafakkurining eng yuqori bosqichini ifodalaydi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quvchilarda faollik, muammolarga boshqacha qarash, o‘z ustida ishlash va tanqidiy tahlil qilish kabi muhim sifatlar shakllanadi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarning ongi sezgir, tafakkuri esa moslashuvchan bo‘lgani sababli, bu bosqichda ijodiy fikrlashni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi.

Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo‘lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san’atga estetik munosabati tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya o‘z navbatida bolalarga bir qismi hisoblanadi. U ayniqsa axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liqdir. San’at va hayot go‘zalligi bilan tanishtirib borish, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir birida uni ng xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarni go‘zallikka oshno qilish ularda hayotiy voqealarni turri tushunish, olijanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda go‘zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini xis eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham kurish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

Tasviriy san’at ta’limi o‘quvchi shaxsining ma’naviy, estetik va intellektual kamo lotini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mazkur fan o‘quvchilarni nafaqat rasm chizishga, balki tasviriy ifoda vositalari orqali dunyoni anglashga, badiiy-tasviriy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltiradi. San’at orqali idrok etilgan ma’lumotlar shaxsning hissiy-emotsional tajribasini boyitadi, uning ruhiy olamida barqaror estetik qarashlar va qadriyatlar tizimini shakllantiradi.

Shuningdek, tasviriy san’at ta’limi bolaning kuzatuvchanlik, tahlil qilish, solishtirish, o‘xshatish va umumlashtirish kabi tafakkur jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rasm chizish, kompozitsiya tuzish yoki ranglar uyg‘unligini topish jarayonida o‘quvchi nafaqat amaliy ko‘nikmalarni egallaydi, balki ijodiy muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi. Bu esa kreativlik, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi zamonaviy kompetensiyalarning shakllanishi uchun muhim omildir.

Tasviriy san’at ta’limining yana bir muhim jihati — o‘quvchilarda milliy madaniyatni anglash va qadrlash ko‘nikmasini shakllantirishdir. O‘zbek xalq san’ati, amaliy bezak san’ati, miniatyura, naqsh va milliy me’morchilik namunalarini o‘rganish o‘quvchilarni milliy identitet ruhida tarbiyalaydi. San’at darslarida xalq amaliy san’ati elementlarini qo‘llash orqali yoshlar milliy merosning go‘zalligini, rang-barangligini va badiiy qadrini chuqurroq anglaydi. Bu esa ularda vatanga muhabbat, tarixiy xotira va madaniy ongni shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida tasviriy san’at darslarini raqamli texnologiyalar bilan boyitish ham alohida ahamiyatga ega. Kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish elementlari, elektron tasvirlar bilan ishlash, virtual muzeylarga tashrif kabi innovatsion yondashuvlar





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi. Raqamli san‘atning ta‘lim jarayoniga kirib kelishi o‘quvchilarni yangi avlod kasblariga tayyorlash, vizual savodxonlikni oshirish va kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, tasviriy san‘at ta‘limi o‘quvchi shaxsining har tomonlama kamolotida integrativ vazifani bajaradi: u estetik tarbiyani, ma‘naviy rivojlanishni, intellektual faoliyatni, ijodkorlikni va madaniy ongini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois zamonaviy ta‘lim tizimida san‘at fanlarini takomillashtirish, pedagogik jarayonni mazmunan boyitish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Tasviriy san‘at ta‘limi o‘quvchi shaxsining barkamol rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi pedagogik jarayondir. Bu ta‘lim turi nafaqat badiiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki o‘quvchilarda estetik sezgirlik, ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash va ma‘naviy qadriyatlarni anglash jarayonini chuqurlashtiradi. San‘at darslari shaxsning hissiy-madaniy rivojlanishiga, milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishni oshirishga va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Boymetov. "Qalam tasvir" o'quv qo'llanma. "ILM-ZIYO" nashriyoti. 2017-yil Toshkent.
2. U.Mamatov. O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari. "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2018-yil. Toshkent.
3. X.Muratov. "Qalam tasvir" o'quv qo'llanma. "Ijod-print" nashriyoti. 2020-yil. Toshkent.
4. To'xtasinov N. "Ijodiy fikrlash va metodika". – Toshkent, 2019.
5. X.Muratov. "Qalam tasvir" o'quv qo'llanma. "Ijod-print" nashriyoti. 2020-yil. Toshkent.
6. Islomova Z. "Pedagogik texnologiyalar asosida ijodiylikni shakllantirish". – 2021.
6. Begmatov A. "O'qituvchida kreativ yondashuv madaniyatini shakllantirish". // "Xalq ta'limi", 2020